

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI



“MINTAQANI IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI” mavzusida



RESPUBLIKA
ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
MATERIALLAR TO'PLAMI

14-15 IYUN
TERMIZ-2024

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI



**“MINTAQANI IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHNING
USTUVOR YO‘NALISHLARI”
mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjuman
MATERIALLARI
*2024-yil 14-15-iyun***

Termiz – 2024

UO‘K: 332.1:004(08)

KBK: 65.04ya43

M 52

**“MINTAQANI IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR
YO‘NALISHLARI” mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjuman**

Mazkur to‘plamda iqtisodiyot, moliya, soliq, bank ishi, raqamli iqtisodiyot, ekonometrika, turizm, buxgalteriya hisobi va audit sohalarida tadqiqot olib borayotgan respublikamizdagi taniqli olim va mutaxassislar, oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, doktorantlarning zamonaviy tadqiqotlari: mintaqqa iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanishni tashkil etishning innovatsion yechimlari, mintaqqa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini prognozlashtirish masalalari; mintaqada turizmni rivojlantirish imkoniyatlari, mintaqada moliyaviy barqarorlikni ta’minlash va pul-kredit tizimini takomillashtirish yo‘llari, buxgalteriya hisobi va auditni rivojlantirish orqali mintaqqa taraqqiyotini ta’minlashning ustuvor yo‘nalishlari kabi masalalar o‘z aksini topgan. Mazkur to‘plam materiallaridan barcha turdagi ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari, katta ilmiy xodim-izlanuvchilar, mustaqil tadqiqotchilar, doktorantlar, magistrlar, talabalar hamda sohaga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Anjuman materiallari Termiz davlat universiteti ilmiy-uslubiy kengashining 2024-yil 23-maydagi № 7-bayonnomasi bilan nashrga tavsiya etilgan.

Mas’ul muharrirlar:

A.Sh.Shaydullayev - TerDU ilmiy ishlar va innovatsiyalar boyicha prorektori;
O.A.Abdug‘aniyev - TerDU Iqtisodiyot va turizm fakulteti dekani.

Tahrir hay’ati a’zolari:

E.X.Avazov	O.Q.Xatamov
O‘.D.Rajabov	G.M.Abdulxayeva
S.J.Gadoyev	B.E.To‘rayev
O.T.Mahmudov	N.J.Nurmatov
S.T.Toshaliyeva	U.T.To‘lakov

To‘plamga kiritilgan maqolalarning mazmuni, ilmiy salohiyati va dalillarning haqqoniyligi uchun mualliflar mas’uldirlar.

ISBN: 978-9910-724-37-4

© Termiz davlat universiteti

© “Surxon ilm nashri” nashriyoti, 2024-y.

Termiz davlat universiteti rektori Toshqulov Abduqodir Hamidovichning kirish soʻzi

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari!

Bugun biz “Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya doirasida bir-birimiz bilan fikr almashish uchun toʻplanganimizdan mamnunmiz. Mintaqalarni barqaror rivojlantirish orqali ijtimoiy muammolarning hal etilishini taʼminlash, mahalliy budjetlarning daromad manbaini kengaytirish, hududlar, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib holda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish bugungi kun talabiga aylanmoqda.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 22-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomalarida “Birinchi navbatda, hududlar oʻrtasidagi iqtisodiy tengsizlikni qisqartirish, barcha tuman va shaharlarni bir maromda rivojlantirish boʻyicha yangicha yondashuvlar joriy etiladi. Hozirgi davrga kelib Markaziy Osiyoda aholisi milliondan ortiq shaharlar 7 taga yetdi. Mintaqamizda poytaxtlar bilan bir qatorda boshqa yirik shaharlar ham “oʻsish nuqtalari”ga aylanmoqda” - deb taʼkidladilar.

Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasida iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga yoʻnaltirilgan makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, qishloq xoʻjaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish boʻyicha institutsional va tarkibiy islohotlarni kengaytirish kabi ustuvor vazifalar belgilangan.

Bugungi kunda turlicha taraqqiyot yoʻlidan borayotgan mamlakatlar oʻzlarining iqtisodiy yuksalishini mintaqaviy xususiyatlarga yondashish asosida tashkil etishga intilmoqdalar. Shu oʻrinda viloyatimizning geografik joylashuvini inobatga olgan holda, mintaqqa iqtisodiy-moliyaviy salohiyatidan keng foydalanish bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biri boʻlib qolmoqda.

Aynan shu maqsadda tashkil etilgan “Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya davomida yuqorida tilga olingan masalalar yechimlarining topilishi, muhokama davrasiga aylanishi, mintaqqa iqtisodiyotini rivojlantirishga intilayotgan tadqiqotchilar uchun tajriba olish, malakalarini oshirish maydoniga aylanishi muqarrar.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasi toʻgʻrisida”gi PF-158-sonli Farmoni qabul qilindi. Mazkur farmon asosida hududlarni iqtisodiy isloh qilishning quyidagi ustuvor yoʻnalishlari belgilab berildi:

- mamlakatimizda 250 milliard dollarlik investitsiyalarni oʻzlashtirish, jumladan 110 milliard dollar xorijiy investitsiyalar va 30 milliard dollar davlat-xususiy sheriklik doirasidagi investitsiyalarni jalb qilish;
- hududlarda xizmat koʻrsatish va xizmat sohalarini rivojlantirish orqali xizmat koʻrsatish hajmini 3 baravarga oshirish;

- o'rta va yirik shaharlar hamda aholisi 300 mingdan ko'p bo'lgan tumanlarda zamonaviy bozor xizmatlari, ta'lim, tibbiyot, yuridik, san'at, turizm mehmonxona va umumiy ovqatlanish hamda transport xizmatlarini rivojlantirish.

O'ylaymizki, anjuman doirasida ishlab chiqiladigan ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan taklif va tavsiyalar albatta, mamlakatimiz iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishga, uning jahon hamjamiyatidagi o'rnini yanada mustahkamlashga, aholi turmush farovonligini yaxshilashga xizmat qiladi.

Konferensiya ishtirokchilarining kelajakdagi faoliyatlariga ilmiy yutuqlar hamroh bo'lsin, anjuman ishiga muvaffaqiyat tilayman!

- Ijtimoiy tarmoq platformalarida sun'iy intellekt yordamida yaratilgan nomzodlarga xos bo'sh ish o'rinlarini e'lon qilishdir.

Bu takliflar hududlarda raqamli tarzda inson salohiyatini rivojlantirishda katta turtki bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Human Development Report 2023/2024. United Nations Development Programme ISBN: 9789210031028. One United Nations Plaza, New York, NY 10017 www.undp.org

2. Valiyevna, T.M., & Nuriddinovna, A.D. (2023). Janubiy Koreya tajribasi misolida xodimlarni boshqarish yo'llari. *Innovative Science in Modern Research*, 44–48. Retrieved from

<https://www.openconference.us/index.php/innoscience/article/view/552>

3. Xasanova, G., & Tojiyeva, M. (2023). Inson salohiyatini rivojlantirishni takomillashtirish yo'llari. *Nashrlar*, 1(2), 70-74. Retrieved from <https://e-itt.uz/index.php/editions/article/view/393>

4. Valiyevna, T. M. (2024). Hududlarda inson salohiyatini rivojlantirishni takomillashtirish yollari. *Xalqaro konferensiya va jurnallarni sifatli indekslash xizmati*, 1(1), 462-465.

5. Hatice Umit Aksoy Ugurlu, Altan Dogan. İnsan Kaynakları Yönetiminde Dijital Dönüşüm ve Dijitalleşen İşe Alım İşlevi. *KOSBED*, 2023, 45: 1-16

ЭРКИН ИҚТИСОДИЙ ЗОНАЛАР ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВА БОШҚАРИШГА ТАЪСИР КЎРСАТУВЧИ ОМИЛЛАРНИНГ ЎЗАРО БОҒЛИҚЛИГИ

Тўхтамуродов Даврон Низом ўғли

Нордик Университети мустақил тадқиқотчиси

Аннотация. Мазкур мақолада инвестициялардан самарали фойдаланишни бошқаришда эркин иқтисодий зоналар фаолияти, иқтисодиётни модернизациялаш шароитида эркин иқтисодий зоналар фаолиятини ташкил этишнинг асослари ва аҳамияти тадқиқ этилган. Ишлаб чиқаришни диверсификациялаш, ички ва ташқи бозорларда миллий товарларнинг рақобатбардошлигига эришиш орқали ҳудудларда эркин иқтисодий зоналар фаолиятини ташкил этишга таъсир кўрсатувчи омилларни ўрганилган. Ўзбекистон иқтисодиётида эркин иқтисодий зоналар фаолиятини бошқариш самарадорлигини такомиллаштириш бўйича муаллифнинг амалий тавсиялари илгари сурилган.

Таянч сўзлар: инвестиция, эркин иқтисодий зона, инвестицион жозибadorлик, маҳаллийлаштириш, ташкилий-иқтисодий механизмлари, эркин иқтисодий зоналар бошқарув тизимини мувофиқлаштириш.

Жаҳонда хорижий инвестициялар ҳажми, сифати, қулай шартлардан фойдаланиш борасида ривожланган мамлакатларда йилдан-йилга инвестициялар

самарадорлигини оширишга хизмат қиладиган инновацион инструментларнинг турли кўринишлари яратиб келинмоқда.

Мамлакатимизга инвестицияларни жалб қилиш борасида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 28 январ 2022 йилдаги 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисидаги фармонида йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисидаги фармонида⁸² 26-мақсад сифатида: Мамлакатда инвестиция муҳитини янада яхшилаш ва унинг жозибадорлигини ошириш, келгуси беш йилда 120 миллиард АҚШ доллари, жумладан 70 миллиард доллар хорижий инвестицияларни жалб этиш чораларини кўриш, инвестициялардан самарали фойдаланиш ҳамда экспорт ҳажмларини ошириш бўйича, “пастдан-юқориға” тамойили асосида, янги тизимни йўлга қўйиш вазифалари белгилаб берилган.


Миллий иқтисодиётни эркинлаштириш ва модернизациялаш шароитида мамлакатимизда хорижий ва маҳаллий инвестицияларни жалб қилиш учун етарлича ташкилий шароитлар яратиш энг муҳим вазифалар қаторига киради. Бу муҳим вазифаларни бажаришда ҳудудларда эркин иқтисодий зоналарни ташкил қилиш ва ривожлантириш муҳимдир.

Ўзбекистон Республикасининг “Эркин иқтисодий зоналар тўғрисида”ги Қонунига биноан⁸³ “Эркин иқтисодий зона – минтақани жадал ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш учун мамлакат ва чет эл капиталини, истиқболли технология ва бошқарув тажрибасини жалб этиш мақсадида тузиладиган, аниқ белгиланган маъмурий чегаралари ва алоҳида ҳуқуқий тартиботи бўлган махсус ажратилган ҳудуддир”.

Мамлакатимиз иқтисодиётининг устувор тармоқларини ривожлантиришда инвестицияларни жалб қилиш сиёсати самарали олиб бориш, капитал, вақт ва ташкилий-иқтисодий имкониятлардан фойдаланиш орқали иқтисодиётини юксалтириш, унинг жаҳон иқтисодий тизимиға интеграциялашувини рағбатлантириш йўли билан инвестицияларни фаол жалб қилишга ва улардан оқилона фойдаланишга қаратилган. Миллий иқтисодиётни ривожлантиришда эркин иқтисодий зоналарни ташкил этиш ва уни бошқариш муҳим тадбирлардан бири бўлиб ҳисобланади (1-расм).

⁸²Ўзбекистон Республикаси Президентининг 28 январ 2022 йилдаги 2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисидаги фармонида // Lex.uz.

⁸³Ўзбекистон Республикасининг “Эркин иқтисодий зоналар тўғрисида”ги Қонуни. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2005 й., 49-50-сон



1-расм. Эркин иқтисодий зоналар фаолиятини ташкил этиш ва бошқаришга таъсир кўрсатувчи омилларнинг ўзаро боғлиқлиги.

Ўзбекистон Республикасининг Президенти⁸⁴ таъкидлаганидек, “Энг асосийси, бу ислохотлар натижасида халқимиз учун фаровон ва муносиб турмуш шароитини яратиб беришимиз керак. Одамларимиз етарли даромад топиши учун энг қулай бизнес ва инвестиция муҳитини шакллантириб, янги-янги корхоналар ва иш жойларини кўпайтиришимиз зарур”.

Шу ўринда иқтисодиётни ислоҳ қилиш борасида савдо, солиқ ва молия сиёсатини либераллаштириш, тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш ва хусусий мулк дахлсизлигини кафолатлаш, қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини чуқур қайта ишлашни ташкил этиш ҳамда эркин иқтисодий зоналарни ривожлантиришни таъминлаш бўйича таъсирчан чоралар кўрилди.

БМТ маълумотларига кўра бутун дунё мамлакатларининг 45,5 % аҳолиси, яъни 3 миллиарддан ортиқ инсон ишчи кучи ҳисобланади. Дунё бўйича меҳнатга қобилиятли аҳоли рейтинги бўйича Ўзбекистон 35 ўринда (18 миллионга яқин)

⁸⁴Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2020 йил. lex.uz.

қайт этилган. Ҳозирги кунда Ўзбекистонда иш билан банд бўлган аҳоли 12,2 миллион нафарни ташкил этмоқда.

Олиб борилган тадқиқотларга асосланиб, ишлаб чиқариш инфратузилмасини ривожлантириш, эркин иқтисодий зоналарда самарали бошқарувни йўлга қўйиш ечимларида қуйидаги асосий вазифаларни бажариш лозим деб ҳисоблаймиз:

- ижтимоий инфратузилманинг энг асосий объектларини яратишга қаратилган, масалан, йўл-қурилиш, транспорт, муҳандислик, алоқа воситалари ва энергиянинг сифатли таъминотини яратиш;

- ижтимоий инфратузилмани яратишда ҳукумат органлари ва маҳаллий бошқарув органларининг бевосита ҳам молиявий, ҳам ижтимоий қўллаб-қувватлашишига эришиш;

- ЭИЗ ривожланишининг устувор йўналишлари, инфратузилманинг ҳолати, хом-ашё ва жойлашув ўрни ҳақидаги маълумотларнинг ўз вақтида етказишнинг замонавий усулларида фойдаланиш;

- инвесторлар манфаатларини ҳимоя қилувчи ва ҳуқуқларининг таъминланишини доимий назорат қилиш;

- эркин иқтисодий ҳудудларда ижтимоий инфратузилмани яратишда тадбиркорлар, ишбилармонлар фаолиятидан кенг фойдаланиш ва турли кўринишдаги маъмурий-буйруқбозлик усулларида воз кечиш.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Доклад о мировых инвестициях за 2017 год. Издание Организации Объединенных Наций, Женева. 2017. - 46
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 28 январ 2022 йилдаги 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисидаги фармонида // Lex.uz.
3. Ўзбекистон Республикасининг “Эркин иқтисодий зоналар тўғрисида”ги Қонуни. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2005 й., 49-50-сон
4. Бобаназарова Ж.Х. Ҳудудларда инсон капитални ривожлантириш масалалари. Инсон капитални ривожлантириш миллий иқтисодиёт барқарорлиги омили. Халқаро илмий амалий конференция. Тошкент. 2023. 3.05. 293-294

AHOLI BANDLIGINING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI VA TARMOQ TARKIBI TAHLILI

Umarova Gulandom Tumanovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada aholi bandligining mintaqaviy xususiyatlari hamda tarmoq tarkibi bo'yicha ma'lumotlar berilgan. Iqtisodiy o'zgarishlar bosqichida bandlik tarmoq tarkib dinamikasi tavsiflanib, statistik tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Aholi, bandlik, hudud, viloyat, iqtisodiy faol aholi, iqtisodiyot tarmoqlari, iqtisodiy rivojlanish, iqtisodiyotda bandlar.

Тиркашев У.М. Иқтисодий ўсишни таъминлаш ва аҳоли даромадларини ошириш.....	143
Tojiyeva M.V. Hududlarda inson resurslaridan samarali foydalanish.....	148
Тўхтамуродов Д.Н. Эркин иқтисодий зоналар фаолиятини ташкил этиш ва бошқаришга таъсир кўрсатувчи омилларнинг ўзаро боғлиқлиги.....	150
Umarova G.T. Aholi bandligining mintaqaviy xususiyatlari va tarmoq tarkibi tahlili.....	153
Utebergenov A.A. Mintaqa iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanishda qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talab va sug'urta xizmatlarining roli.....	156
Xalimjanov D.E., Po'latqulova I.Sh. Oziq-ovqat xavsizligini ta'minlashda mintaqa iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish.....	159
Xalimjanov D.E., Yoqubjonova N.U. Klasterlar – mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy asosi sifatida.....	163
Xayitmuradov A.G'. O'zbekistonning barqaror rivojlanish modeliga o'tish muammolarini hal qilishning asosiy konseptual yondashuvlari.....	167
Xo'jamqulov B.T. Surxondaryo viloyatida qishloq xo'jaligini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	171
Xudayberganov D.T., Farxodova Sh.D. Mintaqada savdo salohiyatini oshirish masalalari.....	174
Yuldashev F.T. Korxonalarda ishlab chiqarishning asosiy yo'nalishlari.....	177
Зарипов Х.З. Инсон капитали ҳақидаги илмий фикрнинг назарий асослари ва ривожланиши.....	179
Зарипова М.Ж. Юқори малакали кадрлар тайёрлаш механизми иқтисодий барқарорлигини таъминлаш омили сифатида	182
Зарекеев А.А. Перспективы повышения эффективности производства на виноградниках в эффективном использовании экономической мощности региона.....	185

2-SHO'BA: MINTAQA IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI PROGNOZLASHTIRISH MASALALARI.

Xatamov O.Q., Ibragimov Q.T. Uy-joy qurilish korxonalarining uchun uzoq muddatli majburiyatlarning mahsulot tannarxiga nisbati tahlili.....	188
Абдуғаниев О.А. Минтақаларда қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ҳосилдорлигини полином моделлари бўйича адаптив баҳолаш ва кўп вариантли прогнозлаш.....	189
Abduxoliqova M., Rashidova N., Botirov Sh. Menejment va boshqaruv.....	194
Axmedov A.B. Increase the investment attractiveness of the region based on the development of investment marketing.....	197
Ахмедов З.С. Транспорт-логистика марказларини рақамлаштиришнинг иқтисодий аҳамияти.....	201
Badalbaev F.S. Modern manager-competitive manager.....	204

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

**“MINTAQANI IJTIMOIIY-IQTISODIY
RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI”**

**mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjuman
MATERIALLARI
*2024-yil 14-15-iyun***

Muharrirlar: A.Sh. Shaydullayev, O.A.Abdug‘aniyev
Musahhih: O.Nizomiddinov
Texnik muharrir: A.Bo‘riyev
Kompyuterda sahifalovchi: F.Abdimurodov

Terishga 11.06.2024-yilda berildi.
Bosishga 14.06.2024-yilda ruxsat etildi.
Bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$. Hajmi 34 bosma taboq. Buyurtma № 46. Times New Roman
garniturasida. Ofset usulda chop etildi. 100 nusxada. 545 bet.

“SURXON ILM NASHRI” nashriyoti.
Termiz davlat universiteti NMM bosmaxonasida chop etildi.